

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ЭДЕБИЯТ

Айтбаев Д. Т. Асимметрик дуализм коммуникациянинг семиотик тамойили сифатида	6
Yuldasheva Sh. Sh. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini qardosh tillardagi guruhlarda o'qitishning o'ziga xosliklari va tajribalar	13
Arifjanova O. Q. Ingliz tilini o'qitishdagi yangi texnikalar: o'qish(reading) va eshitib tushunish(listening) misolida	20
Неъматова С. Глубокие корни развития литератур	25
Мирзорохимов О. К. Для чего предназначен словарь	33

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yusupova M. A., Baxtiyorova S. E. Pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati	40
Jabborova O. M., Baxtiyorova S. E. Bo'lajak ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari	44
Narimbetova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	48
Umarova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari	52
Umarova Z. A., Nazirjonova M. B. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari	60
Xusnetdinov U. I. Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirish g'oyasining rivojlantirish yo'llari	64
Qarshiboyeva X. K. TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari	72
Beketov N. A. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni boshqarish	78
Beketov N. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya funksiyalari	84
Quzmanova G. B., Davlatova M. A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	95
Kuchkinov A. Yu., Tilovova S. B. EKO-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv	100
Qorajonova B. T. Maktablarda psixologik maslahat tashkil etishning samarali shakl va uslublari	110
Абдурахмонова У. Н. Педагогик фаолиятда инновациялардан самарали фойдаланишни ташkil этиш йўллари	117
Turayeva G. E. Pedagogik jarayonni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyat va afzalliklari	121
Xurramova M. A. Ta'lim mazmunini shakllantirishda germeneytik yondashuv imkoniyatlari	126
Achilov T. S. Vatanparvarlik tarbiyasi – maktab o'quvchilarining qiymat-semantik kompetentsiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida	134
Abdusalilova D. Madaniyatlararo muloqot yo'nalishida «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» tushunchasi	141
Мусурманкулова М. Н. Изучение сопоставительно-диаектологической компетенции в современной педагогике	146
Шамиева О. Р. Роль дисфункциональных родителей в эмоциональном благополучии ребёнка	152
Ochilov E. Yu. Role of ai-powered chatbots in increasing efficiency of learning processes	156



TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURINING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

***Qarshiboyeva X. K.**
ChDPU o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi, TALIS, PISA, PILRS, TIMSS.

Ключевые слова: международные программы отсценивания, Организация экономического сотрудничества и развития, Международная ассоциация отсценки образовательных достижений, ТАЛИС, ПИСА, ПИЛРС, ТИМСС.

Key words: international assessment programs, Organization for Economic Cooperation and Development, International Association for the Assessment of Educational Achievement, TALIS, PISA, PILRS, TIMSS.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiy o'sish jadallik bilan rivojlanmoqda. Iqtisodiy o'sish yuqori bo'lgani sari mamlakatimizda barcha sohalarda malakali kadrlarga talab kuchaymoqda.

Bu holat o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqishini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni taqozo etadi. Qayd etilgan talablar xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim, fan sohaslarini rivojlantirish uchun baholash, monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or xorijiy tajribalarni yurtimiz ta'lim sohasiga jalb qilish dolzarb bo'lib turibdi. Ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan hamohang harakat qilish davr talabidir.

Bu harakatni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. Qarorda Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etilib, mamlakatimiz xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi vazifa qilib belgilandi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi islohotlar natijasida PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga joriy etilishi ko'zda tutilgan.



Buyuk kelajak egalari bo'lgan yoshlarimizni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda TALIS xalqaro dasturining ahamiyati beqiyos. Shuning uchun yuqoridagi qarorda xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik bo'yicha yo'l xaritasi belgilab olindi. Bunga ko'ra xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston vakil sifatida ishtirok etishi va xalqaro loyihalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha harakatlar yo'nalishi ko'rsatildi. TALIS (The Teaching and Learning international Survey)-rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish tadqiqotida ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

TALIS o'qituvchilar va maktab rahbarlarining kasbiy jihatdan va pedagogik jihatdan doimo rivojlanib borishi uchun ta'lim muhiti va sharoitlari haqida aniq tahlillarga asoslanadigan, mustahkam yo'nalishlar bo'yicha ishonchli va qiyosiy ma'lumotlarni ishlab chiqadi.

TALIS-o'qituvchilar faoliyati, ularning ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot hisoblanadi.

O'qituvchi va rahbar xodimlar fikri avvaldan tuzib olingan so'rovnomalar asosida o'rganiladi. Har bir so'rovnomani amalga oshirish uchun 45-60 daqiqa vaqt beriladi. Bunday so'rovnomalarni onlayn yoki qog'ozi variantda tashkil qilish mumkin.

TALIS dastlab har besh yilda, ya'ni 2008, 2013 va 2018-yillarda shu sababdan keyingi bosqich 2024-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

TALIS xalqaro baholash dasturining maqsadi ishtirok etayotgan har bir mamlakatga o'qitish va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangidan-yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va yaratish imkonini beradigan ishonchli, aniq, dolzarb va solishtirma qiyosiy ma'lumotlar berishdan iborat.

TALIS- xalqaro baholash dasturining vazifalari:

- jamiyatda pedagogning ijtimoiy mavqeyini oshirish;
- o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish;
- iqtidorli yoshlarni pedagogika sohasiga jalb qilish;
- uzluksiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish
- moderator o'qituvchilarni tanlash.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyoti tashkiloti (IHTT yoki ingl. Organisation for Economic Cooperation and Development-OECD) Yevropadagi davlatlardan tashkil topgan uyushmasi bo'lib, ushbu tashkilotga a'zo davlatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash,



yuksaltirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutadi. IHTT 1948-yilda AQSH tashabbusi bilan tuzilgan bo'lib bu tashkilotni tuzish haqidagi konvensiya 1961-yil 11-oktyabrdan kuchga kirgan.

Bu tashkilotning maqsadi:

- ish o'rinlarini yaratish;
- iqtisodiy o'sish va yashash standartlarining o'sishi uchun iqtisodiy siyosat yurgizish;
- xalqaro raqobatbardoshlikni boshqarish, global ishlab chiqarish va mamlakatlar savdo-sotig'I uchun chegaralarning ochilish jarayonida mamlakatlarga iqtisodiy samaradorlik va sifat tizimlarini oshirishda ko'maklashish;
- ta'lim orqali inson kapitali o'sishini ta'minlash.

TALIS boshqaruv kengashi (TGB) va uning strategic rivojlanish guruhi (SDG) qaror qabul qiluvchi asosiy organ hisoblanadi. Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) boshchiligidagi bosh idoralar Niderlandiya, Amsterdam va Germaniyaning Gamburg shahrida joylashgan. Ular OECD kotibiyati nomidan xalqaro tadqiqotlar o'tkazishga mas'ul hisoblanadi. Kanada statistika markazi hamda ASER Ta'lim tadqiqotlari bo'yicha Avstraliya kengashi (Melburn, Avstraliya) tashkilotlari IEA tashkilotining hamkori hisoblanadi.

Niderlandiyaning Tiburg universitetidagi Texnik maslahat guruhi (TAG) tomonidan texnik, uslubiy va tahliliy masalalarda qo'shimcha yordam ko'rsatiladi.

Tadqiqotlarda ishtirok etuvchi maktab o'qituvchilari va direktorlari nafaqat milliy, balki xalqaro darajada o'z fikrlarini bera olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ya'ni TALIS so'rovnomalari natijalari maktabdagi ta'lim muhiti, maktab direktorlari va o'qituvchilarining kasbiy faoliyati, ularning malaka oshirishlariga oid shart-sharoitlar haqida fikr yuritishga undaydi. Bu tadqiqot asosida ta'lim muassasalaridagi kamchiliklar, o'qituvchilar faoliyatidagi muammolar chuqur va tizimli tahlil qilinib, natijalar reprezentativlik tamoyili asosida davlatlar va xalqaro miqyosda qiyosiy tahlillar olib boradi. Ushbu keng ko'lamli tadqiqot ta'lim dargohlarida kechayotgan pedagogik, uslubiy va ijtimoiy jarayonlar to'g'risidagi imkoni boricha xolis ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, tahlillar natijasida o'qitish va o'rganish jarayoniga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan.

So'rovnomalarda maktab o'qituvchilari va direktorlari o'z malakalarini oshirish jarayoni, ta'lim amaliyoti duch kelayotgan kasbga doir muammolar



haqida bildirgan fikr-mulohazalari maxsus ishlab chiqilgan konseptual mezonlar asosida baholanadi.

Davlatimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri o'qituvchilar, rahbar xodimlar va o'qitishning ishonchli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, o'zgarishlar va izchilliklar bo'yicha haqiqiy xalqaro taqqoslashlar va istiqbollarni ta'minlashdan iborat. Bu jarayon ta'lim siyosati va amaliyoti bilan bog'liq quyidagi uch guruhga yo'naltirilgan;

- o'qituvchilik kasbini rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim siyosatini ko'rib chiqish va ishlab chiqishga yordam berish hamda samarali o'qitish va o'rganish uchun yaxshi sharoit yaratish
- ta'lim sohasi mutaxassislari, o'qituvchilar va maktab rahbarlari uchun ta'lim amaliyotini targ'ib qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish
- tadqiqot Foydalanilgan adabiyotlarini yaratish, TALIS va boshqa ma'lumotlar yordamida keyingi tadqiqotlar uchun asoslovchi ma'lumotlarni yaratish

TALIS tadqiqotlarida 2008-yil 24 ta, 2013-yil 37ta, 2018-yil 46 ta mamlakat ishtirok etdi. 2024-yil ishtirokchi mamlakatlar soni 50 ta mamlakat ishtirok etadi. Yana Shveysariya, Malta, Avstraliya, Marokash, Peru, Tayland kabi 6 ta mamlakat qo'shilishi kutilmoqda.

TALIS 3 ta asosiy bosqichda o'tkaziladi:

- tajriba-2022-yil fevral- mart oylarida,;
- tajriba-sinov 2023-yil fevral-mart oylarida;
- asosiy tadqiqot 2024-yil fevral-aprel oylarida;

Hisobot va tahlil 2024-yil oktyabrdan 2025-yil oktyabrgacha amalga oshiriladi.

Tadqiqotda maktab hayotining dolzarb muammolari, ayniqsa maktab rahbariyatining quyi pog'onadagi hamkasblari bilan munosabatlarida professionallik darajasi, uning maktab muhiti, o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'siri o'rganiladi. Ta'lim tizimi ishtirokchilarining fikr-mulohazalariga TALIS tadqiqoti mamlakatlar ta'lim siyosatida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim manba sifatida e'tibor qaratadi.

TALIS so'rovnomalari uchun muayyan mamlakatning 200 ta maktabi, har bir maktabdan 20 nafardan 5-9-sinflarda ta'lim beradigan o'qituvchilar va shu so'rovnomada qatnashayotgan maktablarning direktorlari, ya'ni 200 nafar direktor va 4000 nafar o'qituvchilar tanlab olinadi. Bu so'rovnomalar o'rta ta'lim tizimi muammolariga pedagog nuqtayi nazaridan qarashga, ma'lumotlarni taqqoslash va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z



navbatida muammolarni barvaqt aniqlash va ularni hal qilishning strategik rejalarini tuzish, harakatlanishga ko‘mak beradi. Yangi davr o‘qituvchilardan butun umr izlanish, o‘z ustida ishlashni talab etadi. Chunki sifatli ta‘limni sifatsiz o‘qituvchilar bilan barpo etib bo‘lmaydi. Tadqiqot maktab muammolarini hal qilish orqali maktab boshqaruvi samaradorligini va mas’uliyatini oshirishni nazarda tutadi.

TALIS o‘quv muhiti va maktablardagi o‘qituvchilarning mehnat sharoitiga bag‘ishlangan birinchi xalqaro so‘rovnoma hisoblanadi. Maktab muammolarini o‘rganish, ularni tahlil qilish bilan birga maktab boshqaruvida samaradorlik va mas’uliyatni oshirishni nazarda tutadi. O‘qituvchilarning kundalik mehnat taqsimoti, vakolatlari va ularning ta‘lim olish va ta‘lim berish jarayonida kadrlarning ruhiy holati va mehnat unumdorligiga ta’siri dunyo miqyosida qiyosiy o‘rganiladi.

Bugungi kunda IHTT IEA kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning ta‘lim sohasida olib borayotgan baholash dasturlari butun ta‘lim tizimini qamrab olgan bo‘lib, ulardan bir nechtalari o‘quvchilar bilimlarini xalqaro ta‘lim dasturlari asosida baholash va tahlil qilishda muhim sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018-yilda 997-sonli “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish vazifasi qo‘yilgan.

Progress in International Peading and literacy Study(TIMSS) – boshlang‘ich s4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Sciense Study – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programmefor International Student Assesment (PISA) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitish va ta‘lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun.

Mazkur Qaror ijrosini amalga oshirish uchun mamlakatimizda Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish, ularni o‘tkazish, Ta‘lim sohasini jadal takomillashtirish bo‘yicha amaliy harakatlar katta sur‘atlar bilan olib borilmoqda. Natijada O‘zbekiston PISA xalqaro baholash tadqiqotlarida ilk bor ishtirok etdi.



Hozirda TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish uchun qizg'in tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimidagi xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlarida ishtirok etish mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun, yangi va ilg'or strategik yo'nalishlarni belgilab olish uchun, munosib kelajak avlodni tarbiyalash uchun bir qancha afzalliklarga ega ekanligi bir ovozdan e'tirof etilmoqda. Chunki, yurtimizda ta'lim sohasi xalqaro standart va talablariga moslashuv jarayoni yuz beradi. Ta'limni xalqaro standartlar asosida tashkil etishimiz, monitoring qilishimiz, boshqa mamlakatlar ta'lim tizimi va darajasi bilan qiyoslash va solishtirish orqali davlatimiz ta'limdagi kamchiliklar aniqlaydi, sabablarini o'rganadi, kelgusida ta'lim tizimining rivojlanishi uchun rejalar tuziladi. Ta'lim sohasida muhim bo'lgan milliy baholash tizimini yaratish va ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa TALIS xalqaro baholash dasturi rahbar va pedagog kadrlarning maktablarda o'qitish va ta'lim olish muhitini, o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganishi bilan ta'lim tizimida yuksak istiqbollarga yo'l ochib beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018-yildagi 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
2. Matkarimov A.M "PISA" xalqaro o'quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsadi, vazifalari. Zamonaviy ta'lim-T;2000, 8(93)-p.51-54
3. G'ulomova M.R. "Xalqaro baholash dasturlari va etimologiyasi va afzalliklari- Science and innovation-UIF-2022: 8 2/ISSN; 2181-3337

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ta'lim tizimidagi TALIS xalqaro baholash dasturi, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berilgan. TALIS xalqaro baholash dasturini joriy etishning afzalliklari haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о международной программе отсценивания ТАЛИС в системе образования, о её целях и задачах. Рассмотрены преимущества внедрения международной программы отсценивания ТАЛИС.

SUMMARY

This article provides information about the international TALIS assessment program in the education system, about its goals and objectives. The advantages of introducing the international TALIS assessment program are considered.